

**MONRE BIRDSLINING “THE METAPHORICAL TWIST” NOMLI
MAQOLASI XUSUSIDA**

Ibragimov Jasurbek Tulkinjon o‘g‘li

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Tayanch doktorant

Annotatsiya. Ushbu tezis g‘arbda metafora nazariyasi boyicha ish qilgan Monri Birdslining “The Metaphorical Twist” maqolasida yuritilgan ayrim bir ma’lumot to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: metafora, o‘xshatish, o‘zaro ta’sir, Grisin, nonkognitiv, nazariya.

Abstract: This thesis is about some information contained in the article "The Metaphorical Twist" by Henry Birdsley, who worked on the theory of metaphor in the West.

Key words: metaphor, simile, interaction, Grisean, noncognitive, theory.

Аннотация: Этот тезис посвящен некоторой информации, содержащейся в статье «Метафорический поворот» Генри Бердсли, работавшего над теорией метафоры на Западе.

Ключевые слова: метафора, сравнение, взаимодействие, Гришин, нокогнитивность, теория.

Butun bir tarix mobaynida Maks Blekning “Metafora” maqolasida berib o‘tgan o‘zaro ta’sir nazariyasidan so‘ng ko‘pgina metaforaviy nazariyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning uchida Monri Birdsli tomonidan ilgari surilgan to‘rtasini tanlab oldik [6, 160-181]. Quyida ularning barchasiga alohida ta’rif berib o‘tishni joiz deb topdik.

1) O‘xshatish nazariyasi

Bu nazariya o‘tmishga borib taqaladi. Aristotel metaforani qisqartirilgan yoki ixchamlashtirilgan o‘xshatish sifatida [7, 65]. Bu nazariyaga ko‘ra, metafora ma’nosi o‘xshatishnikidek anglashiladi. Masalan: “Love is a journey” (Sevgi - sayohat) jumlasini “Love is like a journey” (Sevgi sayohatga o‘xshaydi)

kabi ma'no anglatadi. Ya'ni gapni tarjima qilganda xuddi o'xshatishdek tarjima qilinadi, lekin metafora tarjimasida o'xshatish vositalari bo'lmaydi.

2) O'zaro ta'sir nazariyasi

Ushbu nazariya ham ilk bor Armstrong Richard [8, 231] hayrixoh bildirgan va keyinchalik Maks Blek [3, 31] tomonidan rivojlantirilgan. Ularning fikriga ko'ra, bu nazariyani ikki talabi mavjud. Birida metafora olib tashlab bo'lmaydigan oddiy mazmun bo'lishi kerakligi bo'lsa, ikkinchisida esa bu oddiy mazmun turli xil tizimlarning o'zaro ta'siri orqali hosil qilinadi. Blekning nazariyasiga ko'ra, "A is B" (A+B) formula mavjud [2, 5]. O'zaro ta'sir nazariyasini bu formula bilan ta'riflaydigan bo'lsak, bu yerda "B" bilan bog'langan tizim "A"ga birlashtirilgan shaxs, narsa va joy haqidagi bizning o'ylarimizga o'zaro ta'sir qiladi yoki aniqroq ma'no beradi [3, 41]. Shu o'rinda Maks Blek foydalangan "Man is a wolf" misolini olishga qaror qildik. Bo'rida ov qilish, to'da-to'da bo'lib yurish va yovuz yoki shafqatsizlik kabi xususiyatlari erkak kishiga qiyoslanadi. Bu yerda bo'ridagi xususiyatlar erkaklarni harakterga ega ekanini ochib bergan. O'rni kelganda aytish lozimki, erkak kishini bo'riga o'xshatilishi sharq adabiyoti uchun ham to'laligicha xosdir. "Qutadg'u bilig"da bu obrazni turli qismlarda yorqin namoyon bo'ladi. Misol uchun:

Elin etti tuzdi bayudı budun

Bo'ri qoy bila suvladı ul o'dun (439)

(Manosi: Elida tartib o'rnatdi, uni tuzdi, xalq boyidi,

U davrda bo'ri qo'y bilan suv ichadi.) [4, 124-125]

Bo'ri atamasi asarda turli obrazlarni gavdalantiradi: lashkarboshi, saroy amaldori, o'lim va hakazo. Qo'y atamasi esa ko'p hollarda xalq manosida keltirilgan. Yusuf Xos Hojib ushbu baytda Tabg'ach Bug'raxonni taxtga kelib, adolat o'rnatgani, saroy amaldoriyu oddiy xalq - hammasi birgalikda farovon hayot kechira boshlaganini ifoda etgan. "Bo'ri", "qoy" va "suvladı" so'zlari metafora hosil qilgan.

1. Grisin nazariyasi (Grisean theory)

Grisin nazariyasi metaforaviy tarjima nazariyasi hisoblanadi. Bu nazariya J. Serl tomonidan rivojlantirilgan. Nazariyani asosi metaforani tushunishda soʻzlovchi keltirgan jumlasini orqali nimani tushuntirishni niyat qilganligida [5, 45].

2. Nonkognitivlar nazariyasi (Non-cognitivist theory)

Nonkognitivlar faylasuflar hisoblanib, ular metaforani samaradorligi tekshirmasdan, uning taʼsiri ostida kelib chiqqan maʼnoga urgʻu berishadi. Bu nazariyaning asosi metaforaviy jihatdan foydalanilgan jumla oʻzining asl maʼnosidan yiroqda boʻlmasligida [2, 16]. Shuning uchun Donald Davidson bu nazariyani “norasmiy metafora nazariyasi” deb atashni taklif qiladi [1, 15].

Yuqorida Gʻarbda metafora nazariyasi boʻyicha qilingan ishlarning salmogʻi barcha fanlarning, ayniqsa, falsafa, adabiyotshunoslik va lingvistikaning rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan. Fan va texnologiya rivojlangan asrimizda ham metafora nazariyasini oʻrganishga boʻlgan qiziqish soʻnmaydi. Chunki, har doim insonlar sanʼatning adabiyot deb atalmish bu turidan foydalanib, oʻzlari uchun turli bilimlarni egallashni madsad qiladilar. Adabiy asarlarni omma uchun tasuvvurga boy tarzda namoyon boʻlishi uchun yozuvchi va shoirlar badiiy tasvir vositalaridan, ayniqsa metaforadan juda ham unumli foydalanishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Donald Davidson. What Metaphors Mean.//”Critical Inquiry” journal 1978, Issue5, p. 40.
- 2) Mariam Taverniers. Metaphor. In: Jef Verschueren, Jan-Ola Ostman, Jan Blommeart and Chris Bulcaen “Handbook of Pragmatics”. – T.: Amsterdam: Benjamins. 2002, pp. 18
- 3) Max Black. Metaphor. In: M.Black. Models and Metaphor. Studies in Language and Philosophy. – T.: London, Cornell University Press, 1962, p.25-47.
- 4) Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig. Transkripsiya va hozirgi oʻzbek tiliga tavsif. Q.Karimovniki. – Toshkent: Fan, 1971. – B 124-125

- 5) John R. Searle. *Expression and Meaning*. – T.: Cambridge University Press, 1981. P 81
- 6) Khoshimova, D. M., & Inomidinova, D. I. (2015). COMPARATIVE STUDYING THE WORLD OF ANIMALS IN" BABURNAME" BY ZM BABUR. *Вестник современной науки*, (9- 1), 97-99.
- 7) Khoshimova, D. (2022). THE TRANSLATION PROBLEMS OF LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF "BABURNAME". *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 1067-1069.
- 8) Khoshimova, D. (2020). GENERAL AND CONDITIONAL PECULIARITIES OF DESCRIPTIVE MEANS IN" BABURNAME". *The Scientific Heritage*, (49-3), 50-51.
- 9) Khoshimova, D. (2019). The place of author's personal and interpersonal comparison means in translation of «Baburname». *Sciences of Europe*, (45-5 (45)), 46-48.
- 10) Monroe C. Beardsley. *The Metaphorical Twist*. — "Philosophy and Phenomonological Research", vol. 22, 1962, № 3, p. 293 — 307., Monroe C. Beardsley. *Metaphor// "Critical Inquiry"* Vol. 5, No. 1, Special issues on *Metaphor* (Autumn, 1978), pp. 160-181
- 11) V. Johnson. *Philosophical Perspectives on Metaphor*. – T.: Minneapolis: University of Minneapolis Press, 1981, pp. 56-110
- Axmadjonov Nurbek f.f.b.f.d (PhD). German language teacher of Fergana State University <https://doi.org/10.5281/zenodo.7805868>. LINGOCULTURAL CHARACTERISTICS OF ALLUSIVE ANTHROPONYMS IN ARTISTIC TEXT. JAH ISSN:2770-9132 JOURNAL OF AGRICULTURE & HORTICULTURE. International scientific journal. JAH UIF=8.1|SJIF=5.69. JAH | Volume 3, Issue 4, April Page 17-21
12. Akhmadjonov Nurbek f.f.b.f.d (PhD) German language teacher of Fergana State University. Ergasheva Nozimakhon Bahodirjon kizi. Student of Fergana State University. USE OF PRECEDENT NAMES IN ARTISTIC WORKS.FOR PARTICIPATIONIN THE SCIENTIFIC CONFERENCE INNOVATIVE

RESEARCHIN MODERN EDUCATION WITH AN ARTICLE ENTITLED.

Hosted from Toronto, Canada, Page. 53-56

13.Akhmadjonov Nurbek f.f.b.f.d (PhD) German language teacher of Fergana State University. THE PRECEDENT IS ABOUT THE NAME AND ITS

MEANING. INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH Hosted from Singapore. Page.108-111